

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylariga o'quvchilarni qabul qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” va “Ichki ishlar organlari to'g'risida” qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-ton qarori va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, umumta'lim muassasalarining 9-sinflarini tamomlagan o'quvchilarni (keyingi o'rnlarda nomzod deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylariga (keyingi o'rnlarda IIV akademik litseyi deb ataladi) tanlash va o'qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

2. IIV akademik litseylariga qabul yilida umumta'lim muassasalarining 9-sinfini tamomlanligi to'g'risida shahodatnomaga ega bo'lган, sog'lig'i jihatidan o'qishga yaroqli deb topilgan, dastlabki, maxsus-professional tanlov va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar o'qishga qabul qilinadi.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-tonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-ton)

3. IIV akademik litseylariga qabul O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadigan kvotaga muvofiq amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashga munosib hissa qo'shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga IIV akademik litseylariga kirish uchun o'quvchilarni qabul qilishning umumiy sonidan besh foizli kvota ajratiladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 529-tonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2019-y., 09/19/529/3346-ton)

4. Qabul komissiyasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBLar hamda viloyat IIB boshliqlari IIV akademik litseyi qabul komissiyasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining yuqori malakali va tajribali katta ofitserlari komissiya raisi o'rinosarlari etib belgilanadi.

(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-tonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-ton)

Qabul komissiyasi tarkibiga IIV akademik litseyi direktori, ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalari va O'zbekiston yoshlar ittifoqi hududiy Kengashidan bir nafardan a'zo kiritiladi. IIV akademik litseyi direktori komissiya kotibi hisoblanadi.

Maxsus-professional tanlov bo'yicha imtihonlarga qabul komissiyasi tarkibiga qo'shimcha ravishda tor doiradagi mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin.

6. IIV akademik litseylari o'quvchilarini kontingentini sifatli va maqsadli butlash uchun quyidagilarni o'z ichiga oladigan bosqichma-bosqich kompleks tanlov amalga oshiriladi:

dastlabki tanlov;

maxsus-professional tanlov;

test sinovi.

Oldingi tahrirga qarang.

7. Dastlabki tanlov IIV akademik litseylariga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodga tegishli hujjatlar va uni tavsiflovchi ma’lumotlarni o‘rganishni, tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tkazishni, nomzodning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganishni, yakka tartibdagi dastlabki suhbat o‘tkazishni, dastlabki tanlov yakuni bo‘yicha nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildini va tanlov natijalarini o‘rganish hamda ularni maxsus-professional tanlovga qo‘yish masalasini hal etishni o‘z ichiga oladi.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 374-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2019-y., 09/19/374/3094-ton)

8. Maxsus-professional tanlov nomzodning orfografik va punktuatsion savodxonlik darajasini, umumjismoniy tayyoragarligini aniqlash bo‘yicha sinov va yakka tartibdagi yakuniy suhbat o‘tkazish hamda ularni test sinovlariga qo‘yish masalasini hal etishni o‘z ichiga oladi.

Nomzodlar bilan yakuniy suhbat o‘zbek, qoraqalpoq va rus tilida yakka tartibda o‘tkaziladi.

9. Qabul komissiyasiga test sinovlarini o‘tkazish uchun quyidagilar yuklanadi:

maxsus-professional tanlov natijalari asosida test sinovlariga qo‘yilgan nomzodlarning ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga taqdim etish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan test sinovlarini o‘tkazish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

Oldingi tahrirga qarang.

test sinovlari natijalari bo‘yicha IIV akademik litseylariga birinchi bosqichga nomzodlarni o‘qishga qabul qilish ro‘yxatini tayyorlash va buyruqqa kiritish uchun hududlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari hamda viloyatlar IIBlariga taqdim etish;

(9-bandning to‘rtinchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagи 466-tonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-ton)

nomzodlarni qabul qilish natijalari to‘g‘risida hisobotlar tayyorlash (qabul komissiyasi bayonnomalari, IIV akademik litseylari birinchi bosqichiga o‘qishga qabul qilish uchun nomzodlar ro‘yxati, test sinovlari natijalari bo‘yicha umumiyoq ro‘yxat) va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligiga taqdim etish;

nomzodlar, ularning ota-onalari yoki ularni o‘rnini bosadigan shaxslarning IIV akademik litseylariga o‘qishga qabul qilish masalalari bo‘yicha shikoyatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish.

10. Nomzodlarni o‘qishga qabul qilish tanlov yo‘li bilan, teng huquqlilik va odillik prinsiplari asosida, qabul qilishning yagona tartibi va qoidalariiga rioya qilgan holda amalgalash oshiriladi.

11. Nomzodlarning o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi arizalarni topshirish muddatlari va qabul komissiyasiga taqdim etiladigan zarur hujjatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligi tomonidan belgilanadi.

12. Hududiy ichki ishlар organlarining rahbarlari o‘qishga nomzodlarni xolisona va sifatli tanlab olish bo‘yicha shaxsan mas’ul hisoblanadi.

2-bob. Dastlabki tanlov

13. IIV akademik litseylariga o‘qishga kirish uchun murojaat qilgan nomzodlarning kelgusida ichki ishlар organlarida xizmat olib borishi uchun sog‘lig‘i va ruhiy mosligi, barqaror ichki e’tiqodi, intellektual va ma’naviy-axloqiy salohiyatni aniqlash dastlabki tanlovning asosiy maqsadi hisoblanadi.

14. Dastlabki tanlovda quyidagilar amalga oshiriladi:

IIV akademik litseylariga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganish;

yakka tartibda dastlabki suhbat o'tkazish;
nomzodlarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish;
Oldingi tahrirga qarang.

tibbiy komissiya ko'riganidan o'tkazish;

(14-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 374-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2019-y., 09/19/374/3094-ton)

dastlabki tanlov yakuni bo'yicha nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildini va tanlov natijalarini o'rganish hamda ularni maxsus-professional tanlovga qo'yish masalasini hal etish.

15. Quyidagilar nomzodga tegishli hujjatlar va uni tavsiflovchi ma'lumotlarni o'rganishda birlamchi vazifa hisoblanadi:

taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish, nomzod to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali jamlash va tizimlashtirish;

nomzodning ijtimoiy faolligi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aniqlash;
o'qishda va sport musobaqalarida erishgan natijalarini aniqlash;

nomzodni ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlash.

16. Dastlabki tanlovda ishtirok etish uchun nomzod quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Oldingi tahrirga qarang.

a) hududiy jihatdan tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIB boshliqlari va Qoraqalpog'ston Respublikasi ichki ishlar vaziri nomiga ariza;

(16-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-ton)

b) belgilangan shakldagi so'rovnama;

v) o'qish joyi va mahalla fuqarolar yig'inidan tavsifnama;

g) namuna asosida yozilgan batafsil tarjimai hol;

d) tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki passport nusxasi, mudofaa ishlari bo'limlarida ro'yxatda turishi to'g'risidagi ma'lumotnomaning nusxasi;

e) fanlarni o'zlashtirishi to'g'risida o'qish joyidan maktab direktori tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnama;

j) 3 x 4 sm o'lchamdagagi 6 ta fotosurat (bosh kiyimsiz va burchaksiz) hamda 9 x 12 sm o'lchamdagagi 2 ta fotosurat (bosh kiyimsiz).

17. Dastlabki va maxsus-professional tanlov talablariga javob beradigan, ta'lim muassasalariga test sinovlarisiz qabul qilinish huquqiga ega bo'lgan ayrim toifadagi nomzodlar qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Oldingi tahrirga qarang.

a) tegishli ixtisoslik fani bo'yicha xalqaro olimpiadalar va respublika fan olimpiadalarining respublika bosqichi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan o'tkazilgan tanlovlardan va musobaqalar g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining belgilangan namunadagi guvohnomalari;

(17-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldaggi 508-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2018-y., 09/18/508/1477-ton)

b) o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining farzandlari;

mazkur kichik bandning **birinchi xatboshisida** belgilangan bolalarni akademik litseyiga tanlovdan tashqari qabul qilish to'g'risida tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining iltimosnomasi;

o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchi, huquqni muhofaza qilish organlari xodimining vafoti to'g'risida xizmat tekshiruvi (ma'muriy tekshiruv) xulosasining nusxasi;

o‘lim haqidagi guvohnoma nusxasi.

Oldingi tahrirga qarang.

v) O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining taqdimnomasi.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 529-soni qaroriga asosan “v” kichik band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2019-y., 09/19/529/3346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

18. Tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma yoki pasport, harbiy xizmatga chaqiriluvchining qayd etilganligi to‘g‘risida guvohnoma, o‘qishga imtiyozli kirish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning (17-bandda ko‘rsatilgan nomzodlar toifasi uchun) asl nusxalari nomzodlar tomonidan qabul yilining 1-iyun kuniga qadar tegishli IIV akademik litseyining qabul komissiyasiga shaxsan taqdim etiladi.

Qabul yilining 1-iyun kunidan so‘ng o‘qishga imtiyozli kirish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar qabul qilinmaydi.

Qabul komissiyasi nomzodlarning o‘qishga imtiyozli kirish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini qabul yilining 25-iyun kuniga qadar tegishli vazirlik va idoralar bilan ko‘rib chiqilishi va O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdim etilishini ta’minalash uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kasbiy tayyorgarlik boshqarmasiga taqdim etadi.

(18-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

19. Nomzodlar bilan yakka tartibdagi dastlabki suhbat ularning yashash joyi hududidan kelib chiqib, tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB boshliqlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan o‘tkaziladi.

(19-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Yakka tartibdagi dastlabki suhbatda quyidagilar aniqlanadi:

nomzodning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini, davlatni himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarini tushunishi;

yuqori darajadagi hushyorlik hamda yot mafkura va huquqbazarliklarga nisbatan murosasizligi;

burchni his etishi, qat’iyatligi, ishchanligi, mehnatsevarligi;

nomzod to‘g‘risidagi turli ma’lumotlar (oilaviy ahvoli, ota-onasi va yaqin qarindoshlarining ichki ishlar organlarida xizmatga munosabati va shu kabilari);

ichki ishlar organlari xodimi kasbini tanlashining sabablari, asoslari va boshqalar.

20. Yakka tartibdagi dastlabki suhbat natijasida quyidagi xulosalar beriladi:

IIV akademik litseyiga o‘qishga kirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga tavsiya etiladi;

IIV akademik litseyiga o‘qishga kirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga tavsiya etilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. Nomzodlarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minalash departamenti tomonidan taqdim etiladigan metodikalar bo‘yicha psixologik test sinovlari o‘tkaziladi.

(21-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Individual-psixologik xususiyatlarni o‘rganish natijalariga asosan quyidagi xulosalar tuziladi:

IIV akademik litseyiga kirishga tavsiya etiladi;

IIV akademik litseyiga kirishga tavsiya etilmaydi.

Individual-psixologik xususiyatlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra, tanlovdan o‘ta olmagan nomzod tanloving keyingi bosqichlariga qo‘yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

22. Nomzodning sog‘lig‘i jihatidan o‘qishga yaroqlilagini aniqlash tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tkazishda asosiy vazifa hisoblanadi.

Nomzodlar yashash joyi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tadi.

Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish yakunlari bo‘yicha nomzodga tibbiy ma’lumotnoma beriladi.

Sog‘lig‘i jihatidan o‘qishga yaroqsiz deb topilgan nomzod tanlovning keyingi bosqichlariga qo‘yilmaydi.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 374-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2019-y., 09/19/374/3094-son)

Oldingi tahrirga qarang.

23. IIV akademik litseyiga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzoddan ariza olingandan so‘ng, tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Kadrlar boshqarmasi tomonidan nomzodning belgilangan tartibda muomalaga layoqatliligi yoki muomala layoqati cheklanganligi, muqaddam sudlangan bo‘lsa, sudlanganlik holati tugallanganligi yoki sudlanganlik holatining olib tashlanganligi va ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan boshqa talablar asosida o‘rganiladi.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Oldingi tahrirga qarang.

24. Dastlabki tanlov yakuni bo‘yicha nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildi tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIVning Kadrlar boshqarmasi tomonidan o‘rganiladi.

(24-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlarini o‘rganish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

Hujjatlarni o‘rganishda nomzod to‘g‘risida taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlarning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kasbiy tayyorgarlik boshqarmasi tomonidan belgilanadigan muddatlarda tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIVning Kadrlar boshqarmasi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida nomzodlarning rasmiylashtirilgan shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlarini o‘rganadi va natijasi yuzasidan maxsus-professional tanlovda ishtirok etishga qo‘yilgan nomzodlarning ro‘yxati hamda har bir nomzod bo‘yicha IIV akademik litseylarining qabul komissiyasiga umumlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etadi.

(24-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

25. Dastlabki tanlov natijalariga ko‘ra IIV akademik litseyiga kirishga tavsiya etilmagan nomzodlar maxsus-professional tanlovga qo‘yilmaydi.

26. Nomzodlarga quyidagi hollarda rad javobi beriladi:

nomzod O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa;

nomzod belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan bo‘lsa;

nomzodning sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganlik holati olib tashlanmagan bo‘lsa;

nomzodga nisbatan jinoyat ishi, surishtiruv va dastlabki tergov ishlari yuritilganda, sudda jinoyat ishi ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa;

yashash joyidan, ichki ishlar bo‘limlaridan salbiy tavsiyanomalar taqdim etilganda.

Oldingi tahrirga qarang.

27. Nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildi tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBLari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIvning Kadrlar boshqarmasida saqlanadi.

(27-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

3-bob. Maxsus-professional tanlov

28. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini anglaydigan, keng dunyoqarash va intellektual salohiyatga ega, yetakchilik sifatlari rivojlangan, jismoniy tayyorgarlikka ega, orfografik va punktuatsion savodxonlik bo‘yicha talablarga javob beradigan nomzodlarni aniqlash maxsus-professional tanloving asosiy maqsadi hisoblanadi.

29. Maxsus-professional tanloving asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

nomzodning orfografik va punktuatsion savodxonlik darajasini aniqlash bo‘yicha sinov o‘tkazish;

nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha sinov o‘tkazish;

yakka tartibdagi yakuniy suhbat o‘tkazish;

maxsus-professional tanlov natijalariga ko‘ra nomzodni test sinovlarini topshirishga qo‘yish masalasini hal etish.

Oldingi tahrirga qarang.

30. IIv akademik litseyida maxsus-professional tanlov tegishli viloyatlar IIB, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBLari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIvning Kadrlar boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxat bo‘yicha maxsus-professional tanlovda ishtirok etishga qo‘ylgan nomzodlar bilan o‘tkaziladi.

(30-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldaggi 466-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

31. Nomzodlarning orfografik va punktuatsion savodxonlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan sinovda ulardan yozma ish (diktant) olinadi.

Yozma ish (diktant) o‘tkazish tartibi, metodikasi va baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

32. Nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha sinov qabul komissiyasi tomonidan tegishli mutaxassislar jaib etilgan holda o‘tkaziladi.

Nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha sinov o‘tkazish tartibi, metodikasi va baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

33. Yakka tartibdagi yakuniy suhbat qabul komissiyasi tomonidan nomzodning respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini anglashi, keng dunyoqarashga va intellektual salohiyatga egaligi, yetakchilik sifatlari rivojlanganligi, bilimi, aqliy qobiliyati va boshqa muhim kasbiy fazilatlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Yakka tartibdagi yakuniy suhbatni o‘tkazish tartibi, metodikasi va baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

34. Nomzodlarning test sinovlarini topshirishga qo‘yish masalasi maxsus-professional tanlov natijalari bo‘yicha uzil-kesil hal etiladi.

4-bob. Test sinovlari

35. Test sinovlari belgilangan tartib asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi belgilagan muddatlarda o‘tkaziladi.

36. Test sinovlari o‘tkaziladigan umumta’lim fanlari bloki O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Nomzodlar test sinovlarini o‘zlarining tanlovi bo‘yicha uchta: davlat tili, rus tili va qoraqalpoq tilining birida topshiradilar.

37. Test sinovlari natijalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi belgilagan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasiga hamda tegishli IIV akademik litseyi qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

38. Test sinovlariga belgilangan muddatda kelmagan nomzodlar uchun takroriy test sinovlari o‘tkazilmaydi.

5-bob. Nomzodlarga beriladigan imtiyozlar

39. IIV akademik litseyiga O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq, dastlabki va maxsus-professional tanlov natijalariga javob beradigan quyidagi nomzodlar test sinovlarisiz imtiyoz asosida qabul qilinadi:

Oldingi tahrirga qarang.

ixtisoslik fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiadalarda oxirgi uch yil (qabul yili va undan oldingi ikki yil), respublika fan olimpiadalarida oxirgi bir yil (qabul yili va undan oldingi yil), O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan musobaqalarning respublika bosqichida oxirgi bir yil (qabul yili va undan oldingi yil) davomida g‘olib bo‘lgan nomzodlar;

(39-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466сонли qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining farzandlari.

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

Terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta’minalash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari qabul kvotalaridan tashqari, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashga munosib hissa qo‘sghan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlari ajratilgan besh foizli kvotalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining taqdimnomasi asosida, test sinovlarisiz imtiyoz tartibida maxsus-professional tanlovda to‘plagan ballari bo‘yicha ketma-ketlikda qabul qilinib, to‘plagan ballari teng bo‘lib qolgan nomzodlar umumiyligi kvotadan tashqari qabul qilinadi.

(39-bandning to‘rtinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466сонли qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(39-bandning beshinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 466сонли qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son)

Ajratilgan besh foizli qabul kvotalariga qabul qilinmagan nomzodlar maxsus-professional tanlov natijalari bo‘yicha to‘plagan ballari bilan umumiyligi tartibda tanlovda ishtirok etadilar.

(39-bandning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 529-sonli qaroriga asosan to‘rtinchchi — oltinchchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2019-y., 09/19/529/3346-son)

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashgan maktab-internatining dastlabki tanlov natijalariga javob beradigan bitiruvchilari doimiy yashash manzili bo‘yicha maxsus-professional tanlov va test sinovlarisiz imtiyoz asosida qabul qilinadi.

6-bob. Qabul qilish tartibi

40. IIV akademik litseylariga qabul O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan ichki ishlar organlarining ehtiyojini inobatga olgan holda belgilanadigan kvotalar asosida amalga oshiriladi.

41. Nomzodlarni IIV akademik litseyining o‘quvchilari safiga qabul qilish test sinovi natijalariga asosan amalga oshiriladi.

42. Bir nechta nomzodning o‘tish reyting ballari teng bo‘lgan holatlarda ular IIV akademik litseylariga belgilangan kvotadan tashqari qabul qilinadi.

43. Test sinovlari natijalariga asosan IIV akademik litseylarining qabul komissiyasi o‘qishga kirgan o‘quvchilar ro‘yxatini tuzadi hamda birinchi bosqichga qabul qilish to‘g‘risidagi bayonnomani rasmiylashtiradi. Mazkur hujjatlar qabul komissiyasi raisi va a’zolari tomonidan imzolanadi va IIV akademik litseyi muhri bilan tasdiqlanadi.

44. Qabul komissiyasi bayonnomasi nomzodlarni IIV akademik litseyining o‘quvchilari safiga qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqarishga asos bo‘ladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

45. Mazkur Nizomni qo‘llash bilan bog‘liq yuzaga keladigan kelishmovchiliklar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

46. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

*(Qonun hujjatlari ma ’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2017-y., 09/17/767/0022-son, 09.07.2018-y.,
09/18/508/1477-son; 06.05.2019-y., 09/19/374/3094-son, 28.06.2019-y., 09/19/529/3346-son; Qonunchilik
ma ’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son, 28.07.2021-y., 09/21/466/0713-son;
07.07.2022-y., 09/22/363/0600-son)*